



# TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



## AGRAR TARMOQ IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI: muammo va yechimlar

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
**MATERIALLARI T O'PLAMI**

**18-may 2021-yil**



**Toshkent - 2021 yil**

|                                                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Бўрибоева Г.Н., Муллабоева З.Д. «Ақлли кишлоқ хўжалиги» технологияларини жорий этиш муаммолари.....                                                                               | 571 |
| Ишнйязов Б.Н., Аширметова О.Ф. Фермер хўжаликларида галла ҳосилдорликларини режалаштиришнинг математик моделлари.....                                                             | 575 |
| Koraboshev O.Z., Uzokov T.A. "Smart agriculture" in the marketing system of agrarian sector (world experience) .....                                                              | 577 |
| Siddikov Z.T., Saidakbarov S.A. Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologik vositalardan optimal foydalanish muammolari.....                                                         | 580 |
| Ташбаев Н.О., Хазраткулова М.Э, Омонкулов Э.Э. Цифровизация сельского хозяйства – основа для развития агропромышленного комплекса...                                              | 582 |
| Рузметов К.Ш., Арзикулов С.Д. Кишлоқ хўжалиги экипларини мониторинг қилиш дастурий таъминотини ишлаб чиқиш.....                                                                   | 586 |
| Turgunov A.M., Egamkulov S.E. "Digital technologies" in agribusiness and investment activities.....                                                                               | 592 |
| Давлатов С.А., Хўжанова Б.Н. Кишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштиришда “ақлли кишлоқ хўжалиги” элементларини қўллашнинг аҳамияти.....                                               | 594 |
| Аминов С.М. Моделирование процесс фильтрация жидкости в трехслойной взаимодействующих напорных пористых слоях.....                                                                | 599 |
| Орифжонova У., Холмунинов Ф.Н., Хамроев У.Г. Кишлоқ хўжалик корхоналарини виртуал ташкил қилиш ва бошқариш хусусиятларининг таҳлили.....                                          | 604 |
| Юсупова Ф.Э., Исавалиев К.А. Фермер хўжаликларини бошқаришда “Рақамли технологиялар”ни қўллашнинг афзалликлари.....                                                               | 608 |
| Ишнйязов Б.Н. Кишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш жараёнларининг математик моделлари.....                                                                                             | 610 |
| Saidakbarov S.A. Agrar sektor korxonalarini raqamli rivojlanish istiqbollari.....                                                                                                 | 615 |
| Safarov O.A. Markaziy limit teoremda qoldiq hadning bahosi.....                                                                                                                   | 617 |
| Алиева А.Н., Холйигитов Д. Аграр соҳани ривожлантиришда инновацион жараёнларни бошқариш зарурияти.....                                                                            | 620 |
| Файзиев Ж.Н., Файзиев А.А., Расулова М., Абдусаматов А. Тошкент вилояти, паркент туманида етиштирилган узум ҳосилдорлиги динамикасини статистик таҳлил асосида баҳорат қилиш..... | 623 |
| Давлатов С.А. Кишлоқ хўжалигини ривожлантиришда «Ақлли кишлоқ хўжалиги» ни қўллашнинг хориж тажрибалари. ....                                                                     | 628 |
| Gadayev R.R., Sultanov G'.SH. Boshqarish tizimlari faoliyati samaradorligini oshirishda matematik modellardan foydalanish.....                                                    | 633 |
| Ishnlyazov Z.N. Paxtachilikda navlarni joylashtirish tizimini raqamlashtirishning ob'yektiv zarurati.....                                                                         | 635 |
| Хусенов Т., Мусурмонов А.Т. Обоснование технологические схемы опыливателя для борьбы против вредителей и болезней.....                                                            | 638 |
| Шодмонкулов К.М. Кишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштиришда “Ақлли кишлоқ хўжалиги” дан фойдаланишни кенгайтириш.....                                                                | 641 |
| Аманов Б.Т., Собиров Ш.Р., Жуманазарова Л.С. Сувдан фойдаланишни режалаштириш усулларини такомиллаштириш масалалари.....                                                          | 646 |

Ishonchlilikni har bir tashkil qiluvchisini ravshan va bir xil ma'noda aniqlash uchun, obektning xarakteristik holatlari deb atalgan holatlarini maksimal darajada to'la aniqlash lozim. Bular, "buzilmasdan ishlash" va "ta'mirga yaroqliligi" uchun – ishga yaroqli va ishga yaroqsiz holatlaridir; "saqlanuvchanlik" uchun – saqlanganlik va saqlanmaganlik holatlaridir; "uzoqqa chidamlilik" uchun esa – chegaraviy va chegara oldi holatlaridir.

Ishonchlilikning to'rtala tashkil qiluvchisi, vaqt o'lchoviga ega bo'lgan qandaydir tasodifiy kattalik bilan bog'langandir. "Buzilmasdan ishlash" uchun bunday tasodifiy kattalik - buzilmasdan ishlash vaqtidir- $T_b$ ; "Ta'mirga yaroqlilik" uchun buzilishdan so'ng obektni ishga yaroqli holatni tiklash uchun sapf qilingan vaqtidir -  $T_t$ ; "Saqlanuvchanlik" uchun - obektni o'zining texnik xarakteristikalarini va ishlatish ko'rsatkichlarini saqlash vaqti - $T_s$ ; "Uzoqqa chidamlilik" uchun - obektni ishlatish boshidan uni chegaraviy holatga o'tishgacha bo'lgan vaqt -  $T_{ch}$ . Bu vaqtlar ( $T_b, T_t, T_s$  va  $T_{ch}$ ) uzluksiz bo'ladi, xarakteristik tasodifiy kattaliklar (XTK) deb ataladi[1].

Tizimning ichidagi va tashqi muhit bilan aloqalari tavsiflangan. Endi har bir element optimal ishlasa, yani o'z ishini bajarsa masala hal bo'ladi. Lekin bunda deyarli hamma vaqt qarama - qarshiliklar kelib chiqishini quyidagi klassik bo'lib qolgan misolda ko'rib chiqamiz. Mahsulotlarning aniq turlarini chiqaradigan va uni sotishda maksimal foyda olmoqchi bo'lgan biror bir firmaning foaliyatini ko'rib chiqamiz. Bunda oddiy masalani qaraylik tashkilot omboridagi qancha tayyor mahsulot saqlanish kerak va mahsulotlarning qancha turi ishlab chiqilishi kerak. Korxonaning bo'limlari xususiy qiziqishlari qarab chiqadigan bo'lsak bu yerda ularning bir-biri bilan bu qiziqishlarni mos kelmasligini ko'ramiz har bir bo'lim global maqsad firma maksimal foyda olishidan manfaatdor bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zikkov V.Z. Sistemniy analiz. Uchebnoye posobiye. Tyumen, TyumGU, 2000.-384 s.
2. Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari. O'quv qo'llanma/ Akad. G'ulomovning umumiy taxriri asosida – T.: Sharq, 2004-320 b.

### **PAXTACHILIKDA NAVLARNI JOYLASHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING OB'YEKTIV ZARURATI**

*Z.N. Ishniyazov- Qishloq xo'jaligi va oziq- ovqat sohasi  
iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni asosiy maqsadi aholisini tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish asosida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining sifatli, arzon oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoat korxonalarini esa xom- ashyoga bo'lgan talablarini uzluksiz qondirishga qaratilgandir. Ushbu maqsadga erishishda

o'simlikchilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan paxtachilik tarmoqi eng muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Yer yuzida 80 ga yaqin, O'zbekistonda esa - 40 ga yaqin texnik ekinlar ekiladi. Ularning ichida g'o'za asosiy ekin hisoblanadi. G'o'za yetishtirishdan paxta xom-ash'yosi va g'o'zapoya olinadi. Paxta xom-ash'yosini birlamchi qayta ishlash jarayonida paxta tolasi va chigit olinadi. Odatda, paxta tolasi chiqishi 30-35, urug'i esa - 60-65 foizni tashkil etadi. Bir tonna paxta xom-ash'yosini qayta ishlashda 3000 m.kub.ga yaqin gazlama, 100-110 kg yog', 200-250 kg kunjara, 50-60 kg. sheluxa, 10 kg. xo'jalik sovuni va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Paxtachilik universal tarmoqqa aylanib bormoqda. Uning asosiy mahsulotlari paxta xom-ash'yosi va poyasini qayta ishlash jarayonida 1200 dan ortiq sanoat mahsulotlari olinadi. O'zbekiston to'qimachilik sanoati xom-ash'yosi balansida paxta tolasi 70 foizni, o'simlik yog'-moy sanoatida - chigit 90 foizni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini modernizatsiyalash yeng avvalo resurslardan samarali foydalanishni amalga oshirish, resurslardan samarali foydalanuvchi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy yetish bilan bevosita bog'liq holda amalga oshirilishi talab yetiladi.

Bozor sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish deganda birinchi navbatda paxtachilik sohasini rivojlantirish tushuniladi. Chunki, paxtachilik tarmog'i o'zining iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati jihatidan milliy agrar iqtisodiyot asosini tashkil yetadi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, yer maydonlari to'liq xususiy klaster va kooperatsiyalar berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o'rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi.

Bu yil 91 ming gektar yer maydoni qaytadanfoydalanishga kiritildi. 133 ming gektar yoki o'tgan yilga nisbatan 2 barobar ko'p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Mamlakatimiz Prezidenti 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", deb nomlandi.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 23 oktyabrdaqi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Farmonga asosan 2025-yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilindi.

Qishloq xo'jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli ko'rinishidir.

Joylashtirish- alohida turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika mintaqalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo'yicha miqdoriy taqsimlashni bildiradi. Qishloq xo'jaligida paxta navlarini joylashtirishni uni paxtachilikka ixtisoslashganligi bilan chambarchas bog'langanligidir.

Raqamli iqtisodiyot shakillanishi va rivojlanishining nazariy asoslarining tahlillari bo'yicha xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga

bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, raqamli iqtisodiyot ijtimoiy- iqtisodiy tizim sifatida to'liq ochib berilmagan.

Ammo ta'kidlash lozimki, istiqbolda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tahdidlar va ustuvorliklardan qat'iy nazar, uning ahamiyati aslo pasaymaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son qaroriga muvofiq hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, paxta tolasining sifati bo'yicha xalqaro standartlar va talablarga javob beradigan, kasallik va zararkunandalarga chidamli, tezpishar va serhosil seleksiya g'o'za navlarini oqilona joylashtirish hamda 2020 yil paxta hosili uchun chigit yekish ishlari bo'yicha kompleks tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qiladi.

#### 1-jadval

#### Samarqand viloyatida 2020 yil hosili uchun g'o'zaning rayonlashtirilgan va istiqbolli navlarini joylashtirish

| Tumanlar nomi | Jami paxta maydoni | Shu jumladan navlar bo'yicha |            |      |         |          |                                  | Yangi navlar, gektar |
|---------------|--------------------|------------------------------|------------|------|---------|----------|----------------------------------|----------------------|
|               |                    | Yertapishar navlar           |            |      |         |          | Jami yerta-pishar navlar, gektar |                      |
|               |                    | Sulton                       | Buxoro-102 | Omad | S- 8286 | Porloq-1 |                                  |                      |
| Kattaqo'r-n   | 10974              | -                            | 5811       | 400  | -       | -        | 9811                             | 1163                 |
| Narpay        | 10717              | 3833                         | 5757       | -    | -       | -        | 9590                             | 1127                 |
| Paxtachi      | 8170               | 5186                         | -          | -    | -       | 1656     | 6842                             | 1328                 |
| Ishuxon       | 8595               | -                            | 3460       | -    | 4910    | -        | 8370                             | 225                  |
| Payariq       | 12459              | -                            | 7126       | -    | 4483    | -        | 11609                            | 850                  |
| Pastdar-m     | 16904              | -                            | 11807      | 2769 | -       | -        | 14576                            | 2328                 |
| Nurobod       | 600                | -                            | 400        | -    | -       | -        | 400                              | 200                  |
| Oqdaryo       | 5761               | 2113                         | -          | 2998 | -       | -        | 5111                             | 650                  |
| Jomboy        | 1400               | -                            | -          | -    | 1400    | -        | 1400                             | -                    |
| Jami          | 75580              | 11132                        | 34361      | 9767 | 10793   | 1656     | 67709                            | 7871                 |

O'zbekiston paxtachiligida istiqbol vazifa uning yalpi hajmini keskin kamaytirmaslik, uning sifatini yaxshilash, asosiy qismini mintaqada qayta ishlash hisoblanadi. Paxtachilik va u bilan bog'liq bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini intensiv rivojlantirish, mavjud mehnat, yer, suv va boshqa moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, respublika iqtisodiyotining barqaror o'sishiga real sharoit yaratadi.

O'zbekistonda paxtachilik ikki yarim ming yildan buyon rivojlanadi. Ammo, uning yuqori samaradorligidan foydalanish ayrim davrlarda keskin tafovut qiladi. Buni asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan ham ko'rish mumkin (1.2 -jadval).

O'zbekistonning mustaqil mamlakat bo'lib rivojlanish yillarida Samarqand viloyatida yalpi paxta mahsuloti kamaydi. 2020 yilda viloyatda 226,8 ming tonna yoki 2010 yilga nisbatan 16,4 ming tonna kam paxta xom-ash'yosi ishlab chiqildi. Shu yillarda yekin maydoni 23,6 gektarga qisqargan, gektaridan hosildorlik yesa

5,5 s/ga ko'paygan. Paxtachilikda bunday holatga yo'l qo'yilishi obektiv va subektiv sabablardir.

## 1.2-jadval

### Samarqand viloyatida paxta yetishtirish dinamikasi (2010-2020 yy.)\*

| Yillar | Maydoni, ming ga. | Hosildorlik, s/ga | Yalpi hosil, ming t. |
|--------|-------------------|-------------------|----------------------|
| 2010   | 99,2              | 24,5              | 243,2                |
| 2011   | 100,7             | 26,4              | 264,3                |
| 2012   | 93,0              | 24,6              | 240,0                |
| 2013   | 94,8              | 23,7              | 224,4                |
| 2014   | 94,7              | 23,6              | 223,2                |
| 2015   | 91,5              | 25,0              | 228,7                |
| 2016   | 88,7              | 24,5              | 217,4                |
| 2017   | 85,5              | 25,6              | 218,9                |
| 2018   | 80,6              | 16,1              | 129,7                |
| 2019   | 75,6              | 23,6              | 178,4                |
| 2020   | 75,6              | 30                | 226,8                |

\*Manba: Samarqand viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari

Bu xulosalar bir qator takliflar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Viloyat tumanlarini iqlim sharoitlarini inobatga olib, ilmiy asoslangan holda paxta navlarini joylashtirish lozim;
2. Paxtachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda paxta-g'alla-makkajo'xori va beda almashlab yekishni joriy qilish va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar .

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi 2020 yil 29 dekabr.

2. O. Murtazayev, F.B. Ahrorov., Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti- T.: ILM ZIYO. 2017.

3. A.A. Abduvaliyev. Raqamli iqtisodiyot: tendensiyalar va istiqbollar- Toshkent. 2020.

4. Mualiflarning ilmiy-amaliy izlanishlari natijalari.

## ОБОСНОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СХЕМЫ ОПЫЛИВАТЕЛЯ ДЛЯ БОРЬБЫ ПРОТИВ ВРЕДИТЕЛЕЙ И БОЛЕЗНЕЙ

*Т. Хусенов-Самаркандский филиал ТашГАСУ магистр  
А.Т. Мусурмонов-Самаркандский филиал ТашГАСУ д.т.н.*

**Введение.** Химический метод защиты растений является самым радикальным и основан на использовании для борьбы с вредными организмами специальных химических препаратов - пестицидов.

Ядовитые вещества применяют различными способами:

Опрыскиванием, опыливанием, фумигацией, протравливанием, в виде аэрозолей и отравленных приманок.

Опрыскивание - это способ нанесения пестицидов, регуляторов роста и